FARG‘ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI QARORI

2022 - yil 10 - mart 60-11-153-Q/22 Beshariq tumani hokimligi

Beshariq shahar markaziy hududidan kesib o`tuvchi umumfoydalanuvda bo`lgan avtomobil yo`llariga yo`l harakati qoidalarining 3.27 va 3.28 yo`l belgilarini o`rnatish to`g`risida

Tuman markaziy qatnov qismi bo`lgan yo`llarda, ayniqsa, shahar markazining Oltin Vodiy va Sirdaryo ko`chasidagi markaziy qatnov yo`nalishida hamda Yangi Hayot MFY Beshariq ko’chasida yo`l-transport hodisalarining sodir etilishi va tirbandlikning hosil bo`lishiga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish asosida yo`l harakati qoidalari buzilishi profilaktikasi, yo`l-transport hodisalari va yo`llar bandligining oldini olish, yo`llarni saqlash va ularni yo`l belgilari, axborot ko`rsatgichlarini o`rnatish, ushbu orqali yo`l harakatini tartibga solish hamda bu borada O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-iyuldagi PQ-3127-son “Yo`l harakati xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Yo`l harakati xavfsizligi to`g`risida”gi Qonunining 7-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tuman hokimligi, Beshariq tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi va tuman Ichki ishlar bo`limi yo`l harakati xavfsizligi guruhi mas’ullari ishtirokida Beshariq shahar markaziy hududidan kesib o`tuvchi umumfoydalanuvda bo`lgan yo`llarni tartibga solish yuzasidan tuzgan 2022-yil 7-fevral kungi dalolatnomasi tasdiqlansin.

2. Tuman yo`nalishida bo`lgan avtomobil yo`llarining 4K-923 "Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmaxram" 12-26 kilometrlar oralig`ida 12 ta hududiga, 4K-923-A "Beshariq shahriga" avtomobil yo`lining 0-4 km oralig`ida 20 ta hududga, 4K–897" Beshariq-Oqtovuq-Chorboqto`rong`i-Xalqobod" avtomobil

yo`lining 0-1 kilometr oralig`iga 3 ta hududiga, Yangi Hayot MFY Beshariq ko'chasiga 2 ta, 4K-923-A "Beshariq shahriga" va 4K-923 "Yaypan-Rapqon-Beshariq-Chilmaxram" avtomobil yo`lining birlashtiruvchi Boy MFY Cho`lpon ko`chasining 0-0,42 kilometr oralig`iga 6 ta hududga yo`l harakati qoidalarining 3.27 -va 3.28-bandlarida belgilangan "To`xtash va to`xtab turish ta'qiqlanadi" deb belgilangan yo`l belgilari va yo`l harakati qoidalarining 7-,2-,2-bandida ko`rsatilgan "qo`shimcha axborot ishora" yo`l belgisi bilan qo`shib o`rnatilsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo`limi Yo`l harakati xavfsizligi guruhi rahbari A.Erkaboyev, Beshariq tuman yo`llardan foydalanish unitar korxonasi direktori A.Amanov, tuman Arxitektura va qurilish bo`limi boshlig`i Sh.Tursimatovlarga vakolatlari doirasida kelishuv asosida yo`l belgilarini me'yoriy hujjatlarda ko`rsatilgan ko`rinishda, balandlikda o`rnatilishini ta'minlash;

yo`llarni saqlash va ularni yo`l belgilari, axborot ko`rsatkichlari, yo`l harakatini tartibga solishning boshqa vositalari bilan jihozlash bo`yicha o`rnatilgan talablarga so`zsiz rioya etilishini ta'minlash vazifasi topshirilsin.

4. Tuman "Beshariq tongi" gazetasi bosh muharriri S.Temirovga, mazkur qarorni tuma gazetasida chop etish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiritilsin

6.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o`z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **R.K.Jo'rayev**